
E'LON

Fuqarolar yig'inlari raislarining vakolat muddati tugashi munosabati bilan Konstitutsiyamizning 105-moddasi hamda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'ini rasi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida»gi qonunlarning tegishli moddalariga muvofiq Qo'shtepa tumanidagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari)ning navbatdagi saylovi joriy yil 16 maydan 30 maygacha bo'lib o'tadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini rasi (oqsoqoli) saylovi muhim demokratik jarayon bo'lib, mazkur saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarimiz unda faol ishtirok etish orqali davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni bevosita mahallada amalga oshiruvchi shaxsni tanlash huquqiga ega bo'ladilar.

2022-05-16 16:28:14